

JAMOAT TARTIBIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIKlar UCHUN MA'MURIY JAVOBGARLIK

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7752026>



ELSEVIER



Received: 19-03-2023

Accepted: 20-03-2023

Published: 22-03-2023

Oybek Erkinbayev
O'zbekiston Respublikasi Icki Ishlar Vazirligi
Akademiyasi 1-o'quv kursi kursanti



Abstract: Maqolada O'zbekistonda jamoat havfsizligiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklarning sababi, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish borasidagi masalalar muhokama qilinadi

Keywords: Jamoat xavfsizligi, huquqbuzarlik, mayda bezorilik, g'ayri ijtimoiy hatti-harakat, voyaga yetmagan, taraqqiyot strategiyasi, konsepsiya.

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

АДМИНИСТРАТИВНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ПРАВОНАРУШЕНИЯ ПРОТИВ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА

Ойбек Эркинбаев

Курсант 1-курс Академии
Министерство внутренних дел
Республики Узбекистан



Received: 19-03-2023

Accepted: 20-03-2023

Published: 22-03-2023

Abstract: В статье будут рассмотрены причины нарушений, посягающих на общественную безопасность в Узбекистане, вопросы, связанные с пропагандой правосознания и культуры беглецов.

Keywords: общественная безопасность, нарушение границ, мелкие издевательства, антиобщественное поведение, несовершеннолетние, стратегия развития, концепция.

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

ADMINISTRATIVE RESPONSIBILITY FOR OFFENSES ENCROACHING ON PUBLIC ORDER

Oybek Erkinbayev

Cadet 1-training course student
of the Academy Ministry of Internal
Affairs of the Republic of Uzbekistan



Received: 19-03-2023

Accepted: 20-03-2023

Published: 22-03-2023

Abstract: The article will discuss the cause of violations that encroach on public security in Uzbekistan, issues related to the promotion of legal consciousness and culture of fugitives

Keywords: Public Safety, trespass, petty bullying, antisocial behavior, underage, development strategy, concept

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Bizning qat'iy pozitsiyamiz xalqparvar davlat barpo etish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, qonun ustuvorligiga erishish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirishdan iboratdir.

Shavkat Mirziyoyev

Mamlakatimizda uzoq yillardan buyon davlat qurilishi hamda boshqaruvi siyosiy tuzilmalar ularning uslublari va faoliyati "Davlat-Jamiyat-Inson" tamoyili asosida amalga oshirib kelinmoqda. Aynan jamiyat taraqqiyoti uning rivojlanishi, osoyishtaligi uchun, huquqbazarliklarning imkon darajada bo'lmasligi, davlatning jinoyat va huquqbazarliklardan yiroq bo'lmog'i kerak. Bunda eng avvalo, inson, uning huquqlari va baxt-u saodati, davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor maqsadi bo'lishi kerak. Bugungi davrga kelib insonlarning jamiyat hamda davlat qonunlarini mensimaslik holatlari va buning natijasida fuqarolarning huquq va erkinliklariga jiddiy zarar yetkazilib, oxir oqibat huquqbazarlik jinoyat bilan yakunlanmoqda desak yanglishmagan bo'lamiz.

Jamoat tartibi fuqarolarning haq huquqlarini, ularning erkinliklarini hamda ijtimoiy faoliyatlarini davlat tomonidan himoyaga olinganligi, hamda ularga tajovuz qiluvchi huquqbazarliklarga qonunchiligidizda ta'lluqli javobgarliklar belgilanib qo'yilgan. Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha sudlari tomonidan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rishda eng ko'p qayd etilayotgan holatlardan biri bu jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlik hisoblanadi. Jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar aynan jamiyatda yurish-turish qoidalarini hamda jamoat osoyishtaligini ta'minlash, insonning o'ziga munosib xulq-atvorga ega bo'lishiga tayangan jamoat tartibini ta'minlovchi, ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda ko'rsatib o'tilgan huquqqa xilof, aybli ijtimoiy xavfli qilmishlarni tushunishimiz lozim. Shu asnoda ushbu kodeksning maxsus qismida ya'ni XVI bobi aynan „Jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlik“ deb nomlanadi. Bunday huquqbazarliklar uchun javobgarlikning belgilanganligi O'zbekiston Respublikasining qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalari o'rnatilgan yoki bo'lmasa axloq me'yorlari bilan tartibga solingan, jamiyatdagi yurish-turish qoidalarini va ularning buzilishiga qaratilgan munosabatlarni ma'muriy va jinoiy tajovuzlardan himoya qiladi.

Qonunchiligidizda ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik haqida so'z borganda „Jamoat joyi“ atamasini juda ko'p uchratishimiz mumkin. Aksariyat hollarga ko'ra kishining o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikka tortilishi, yoki tortilmasligini anglab yetishimiz mushkul bo'ladi. Bizning fikrimizcha aynan „jamoat joyi“ deganda - barcha fuqarolarning hech qanday ta'qiqlarsiz kirishlar, u yerda bo'lishlari uchun ochiq bo'lgan, yoki fuqarolarning turli xil ehtiyojarini

qondirishlariga mo'ljallangan joydagi hududlar, ko'chalar hamda ularning ayrim qismlari, axborot kommunikatsiya markazlari tushuniladi. Aynan jamoat joyi haqida so'z borganda uning xavfsizligini ham inobatga olishimiz lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son farmonida jamoat xavfsizligiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Jamoat xavfsizligi - davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizimi"[1].

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, www.data.gov.uz rasmiy saytining ma'lumotlariga asosan jami ma'muriy huquqbazarliklar bilan javobgarlikka tortilgan shaxslarning ummiy soni - 6425227 tani tashkil etadi. Shulardan:

Fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan huquqbazarliklar uchun (40-511 - moddalar) - 227339 ta;

Aholi sog'lig'ini saqlash sohasidagi huquqbazarliklar uchun (52-591 - moddalar) - 414779 ta;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbazarliklar uchun (65-96-moddalar) - 93023 ta;

Mulkka tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar uchun (60 - 64-moddalar) - 37900 ta;

Sanoatdagi, qurilishdagi va issiqlik hamda elektr energiyasidan foydalanish sohasidagi huquqbazarliklar uchun (97-103-moddalar) - 12815 ta;

Qishloq xo'jaligidagi huquqbazarlik, veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini buzganlik uchun (104-112- moddalar) - 177067 ta;

Transportdagi, yo'l xo'jaligi va aloqa sohalaridagi huquqbazarliklar uchun (113-156-moddalar) - 4070443 ta;

Fuqarolarning turar joy huquqlariga ta'alluqli, komunal xizmat va obodonlashtirish sohasidagi huquqbazarliklar uchun (157-1632 - moddalar) - 87745 ta;

Savdo, tadbirkorlik va moliya sohalaridagi huquqbazarliklar uchun (164-1795 moddalar) - 211946 ta;

Odil sudlovga tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar uchun (180-182-moddalar) - 60 ta;

Boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar uchun (193-241-moddalar) - 538970 ta;

Tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilganlik, qonunga xilof ravishda aralashganlik hamda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning huquqlari va qonuniy

manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa huquqbuzarliklar uchun (2411-24111 moddalar) - 971 ta;

Jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik (183-1921 moddalar) - 552163 holat qayd etilgan[2].

Birgina jinoyat ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudida 2021 yil davomida 1634 shaxsga nisbatan, 1035 ta ma'muriy ish (shundan, 1488 nafar erkak, 223 nafar ayol), shuningdek, 2022 yil 5 oyi davomida 1041 shaxsga nisbatan, 691 ta ma'muriy ish (shundan, 861 nafar erkak, 184 nafar ayol) ko'rilgan. Lekin mamlakatimizda bunday huquqbuzarliklarning oldini olish borasida bir qancha yangi qonunlar va qarorlar ishlab chiqilmoqda hamda bugungi kunda davlat organlari tomonidan bunday huquqbuzarliklarga qarshi kurashilmoqda. O'zbekistonda bugungi kunda ko'p uchraydigan huquqbuzarliklardan biri bu mayda bezorilikdir. Aynan mayda bezorilikning ko'pgina holatlarini o'rta yoshdagilar va voyaga yetmaganlar sodir etishmoqda. Ummumiy olganda ushbu termin mayda bezorilik - jamoat tartibiga to'g'ridan to'g'ri qasd qilish demakdir. Jamoat tartibi esa, jamoat joylarida huquq normalarini saqlashga mo'ljallangan munosabatlар bo'lib, aybdorning xatti-harakati, jamiyatni, tevarak atrofdagi fuqarolarning manfaatlarini oshkora mensimaslikdan, madaniy saviyasining pastligidan, axloq-odobning mavjud qoidalarini nazar-pisand qilmaslikdan dalolat beradi. Jamoat tartibi birgina huquqiy tomondan emas,boshqa ijtimoiy, ya'ni axloq urf-odat, jamoat tashkilotlarini me'yorlari bilan mustahkamlanadi. Bunda huquqiy holat asosiy rol o'ynaydi, nimagaki tartibni buzganlik uchun yuridik javobgarlik, jazoning turi va darajasini aynan shular belgilaydi. Mayda bezorilik qasddan, ko'pincha oshkora amalga oshirilishi bilan tavsiflanishi mumkin. Huquqbuzar qonunga qarshi xatti-harakat qilayotganini tushunadi, shuning oqibatida jamoat tartibini va fuqarolar osoyishtaligini buzilishiga yo'l qo'yadi. Mayda bezorilik ba'zida egri niyatni ko'zlab ham amalga oshirilishi mumkin. Huquqbuzarlik sodir etish yoshi 16 yoshga to'lgan aqli raso, ruhiy sog'lom shaxs mayda bezorilikning sub'yekti bo'ladi[3]. Mayda bezorilikning sub'yektiv tomondan qasddan va ko'pincha hollarda esa oshkora amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Huquqbuzar shaxs qonunga qarshi xatti-harakat qilayotganini tushunadi va buning natijasi yomon oqibatlarga olib kelishi jamoat tartibi hamda fuqarolar osoyishtaligi buzulishiga yo'l qo'yib berishi bilan tugashi mumkin. Jamoat tartibi mayda bezorilikning qasd qilish ob'yekti hisoblnadi. Bunda jamoat tartibi jamoat joylarida huquq me'yorlarini saqlashga asoslangan munosabatlardir. Jamoat tartibi faqat huquqiy me'yorlarga emas balki boshqa birmuncha ko'p bo'lgan ijtimoiy munosabatlар: axloq, urf-odatlar, jamoat tashkilotlarining me'yorlari bilan ham mustahkamlanib berilgan. Fuqarolar osoyishtaligi va jamoat tartibini buzuvchi xatti-harakatlar huquqbuzarlikning ob'yektiv tomonini tavsiflaydi. Bularga misol qilib: Jamoat

joylarida uyatli so'zlar bilab so'kinish; fuqarolarga haqoratomuz tegajog'lik qilish, ya'ni boshqa shaxsning obro' e'tiborini, sha'nini haqoratlovchi va ularning tinchini buzuvchi harakatlar bo'lishi mumkin. Ob'yektiv tomoning muhim belgisi sifatida: vaziyat, makon, vaqt, hisoblanadi. Mayda bezorilik Jinoyat kodeksining 277-moddasida ko'zda tutilgan bezorilikning xatti-harakatidan tubdan farq qiladi. Aynan mayda bezorilik Jinoyat ishlari bo'yicha sudya tomonidan (245-modda) agarda 247-moddada nazarda tutilgan ish bo'lsa, voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha komissiyalar yoki Ichki ishlar organlari tomonidan ko'rib chiqiladi[4].

Bu kabi huquqbazarlikka qarshi kurashishda, ularning oldini olish hamda yoshlar orasida huquqbazarliklarni kamaytirish uchun bir qancha fikrlarni yoritib o'tsak yaxshi bo'lar edi. Bugungi kunda bunday illatlarning oldini olishda biz farzandlarimizga to'g'ri tarbiya berishdan boshlasak ancha maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki bolalarga yoshlikda berilgan ta'limga ortida yuksak kelajak hamda bilimli iqtidorli yosh avlod bo'lib ulg'ayishlarida katta yordam beradi. Shu bilan birgalikda ularni yon atrofga bo'lgan qiziqishlarni to'g'ri baholay olishimiz kerak. Chunki ularning ongini yon atrofdagi ma'naviy dunyosi past hamda huquqbazarliklarga moyil bo'lgan shaxslar tomonidan jinoyat va shu kabi huquqbazarliklar sodir etishga undashlari mumkin. Ularning kim bo'lishlari hamda qanday insonlar orasida ta'limga olishlariga katta e'tibor berishimiz lozim. Ayrim dunyo olimlarining fikriga ko'ra 7-14 yoshgacha bo'lgan bolalalarning hammasi aynan jamiyat va insonlarning qanday ekanligi haqidagi dunyo qarashlarini yon atrofdagilarning qilgan ishlaridan xulosa olib shakllanar ekan. Bugungi kunga kelib, maktab o'quvchilarining deyarli barcha yoshdagilarning hammasi uyali aloqa vositalaridan foydalanmoqdalar. Ularning bu kabi virtual olamga kirib borishlari va turli xildagi onlayn o'yinlarga ruhan bog'lanib qolishlari ularda yon atrofdagilar bilan muloqotning kamayishiga olib kelmoqda. Bu esa ular bilan oralarida tez-tez o'zaro turli xil masalalarda tortishuvlarga, bu tortishuvlar esa oxiri urush janjallar bilan yakunlanmoqda. Bunday janjallarga moyillik keyinchalik ham davom etib jamiyat va yon atrofidagi insonlar ko'plab zararlar kelib chiqishiga sabab bo'lib kelmoqda. Onlayn oyinlar bugunga kelib yer sharining istalgan joyida, istalgan vaqtida o'zaro bog'lanib, ovozli suhbatlar bilan o'ynash imkoniyatigacha kelib qoldi. Ularning bugungi tahlikali zamonda ayni internet tarmoqlaridagi turli xildagi yod g'oyalarga aldanib qolishlari, shu bilan birgalikda milliy madaniyatimizga zid keladigan, urush va millatchilikni, pornografik mahsulotlarni, targ'ib qiluvchi har xil turdag'i video, rasmlar bilan tanishib ularni jamiyatga singdirish fikrlari bor bo'lgan, ba'zi qoshtirnoq ichidagi insonlar yoq deb hech kim kafolat bera olmaydi. Urushni targ'ib qiluvchi, johillika yetaklovchi, jamiyatda o'zlarining virtual olamdan ortirgan haqiqatga to'g'ri kelmaydigan bu kabi g'oyalar aynan bugungi kunga kelib

jamoat tartibiga uning osoyishtaligiga tajovuz qiluvchi huquqbazarliklarning asosiy sababchisi sifatida ko'rsatib o'tsak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Hozirda yoshlar hamda o'rta yoshdagilar o'rtasida eng ko'p sodir etilayotgan huquqbazarliklar sifatida quydagilarni ko'rsatib o'tishimiz lozim. Ya'ni bularga: mayda bezorilik, diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash tarqatish, pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi, sovuq qurolni yoki sovuq qurol sifatida foydalanishi mumkin bo'lgan ashylarni olib yurish, jamoat joylarida alkagol maxsulotlarini iste'mol qilish, pornografik mahsulotni tarqatish, zo'ravonlikni yoki shavqatsizlikni targ'ib qiluvchi maxsulotni tayyorlash, tarqatish, namoyish qilish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar o'ynash va boshqa shu kabi huquqbazarlilkar jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Birgina qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni o'ynash ularni yorqin kelajakdan mosuvo etmoda. Bu kabi o'yinlarni o'ynagan insonlarning ko'pchiligi katta miqdordagi pullarni yutqazib, ko'p miqdorda qarz bo'lishi va buning natijasida esa pisixik zo'riqish oqibatida o'z joniga qasd qilishi bilan yakun topmoqda. Aksariyat hollarda esa o'g'rlik, talonchilik, bosqinchilik kabi jinoyatlar qilishga urunishmoqdalar. Insonlarning bunday o'yinlarga mukkasidan ketishining asosiy sababi ular o'yinlarning yomon oqibatlari haqida o'ylamaydi. Natijada xatti-harakatlari oqibatini o'ylab ko'rmaydi. O'zini suitsid qilishgacha olib boradi. Ma'lumot uchun, ushbu o'yinlar, ayniqsa, "onlayn" qimor bilan bog'liq jinoyatlar 2019 yilda 55 ta, 2020 yilda 86 ta, 2021 yilda 103 ta, 2022 yilning 6 oyida 90 tani tashkil etgan. „Onlayn qimor”da yutqazganligi sababli 2021 yilda 6 nafar va 2022 yilning 6 oyida 6 nafar fuqaro o'z joniga qasd qilib, vafot etgan. Ularning barchasi 25 yoshgacha bo'lgan yoshlardir.

Bu kabi holatlarga qarshi kurashish borasida turli hil fikr mulohazalar bormoqda. Aynan shunday huquqbazarliklarni o'ynash uchun javobgarlik kiritilgan, lekin uni targ'ib qilish va reklamalarini tarqatish uchun javobgarlik belgilanmaganligi uning qurbanlari sonini oshirib bormoqda. Bu kabi kamchiliklar qonunchiligidan uchrab turibdi. Yoshlarda bugungi globallashuv, mafkuraviy poligonda o'zaro turli xildagi g'oyalar kurashi jarayonida ularni ongidagi bo'shliqlarni to'ldirish hamda mafkuraviy immunitetini shakllantirishimiz lozim.

Demak, ushbu sohada mavjud muammolarni bartaraf etishning asosiy yo'nalishlaridan biri, yoshlar masalalariga oid qonunchilik tizimini yanada takomillashtirish hamda yoshlarning huquqbazarliklar profilaktikasiga oid faoliyatini aniq mexanizmlar asosida belgilab berish lozim. Respublikamizda qonunchilik tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va uning jamiyatdagi zarurati yuzasidan A.A. Tashtemirov quyidagicha fikr bildirgan, "Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, so'ngi yillarda muayyan soha yoki tarmoqni kompleks va tizimli rivojlantirishda konsepsiyalarni qabul qilish amaliyoti urf bo'lmoqda.

Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiysi, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyalari shular jumlasidandir”[5].

Shuningdek, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek oilada farzandlar tarbiyasiga befarq bo'lmasligimiz, alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Ularning har bir harakatlaridan bohabar bo'lishimiz, oilada farzandlarimizning ta'lim olishi uchun barcha shart-sharoitlarini yaratishimiz kerak. Yoshlarimizni kitob o'qishga qiziqtirishimiz va jalb qilishimiz kerak. Aynan shu maqsadda muhtaram yurt boshimiz Shavkat Mirziyoyev taklifi bilan „Yosh kitobxon” ko'rik tanlovining tashkil qilinganligi va bu faqatgina yoshlar orasidagina targ'ib qilinibgina qolmay „Yosh kitobxon oila” nominatsiyasi ham tashkillashtirilib har yilgi g'oliblari aniqlanib taqdirlanib kelinmoqda. Aynan bilimli, dunyo qarashini, dunyoviy ilim ko'nikmalardan boyitgan, fikrlari tiniq, zehnli insonlar va oilalar jamiyatimizning haqiqiy moy devorlaridir. Ommaviy axborot vositalarimizda yuqorida ko'zda tutilgan huquqbazarliklar borasida turli hildagi qisqa metrajli lekin tarbiyaviy ahamiyatga boy bo'lgan va barcha yoshdagi insonlar uchun tushunarli video materiallarni tayyorlab e'firlarga uzatishimiz kerak. Chunki haligacha ayrim turdag'i firklashi tor doiradagi fuqarolarimizning ko'pchiligi „O'zimning huquqlarimdan foydalananayapman” deb ko'plab insonlarning huquq manfaatlari, osoyishtaligiga putur yetkazmoqda.

Bugungi kunda ushbu yo'naliishda sodir etilayotgan huquqbazarliklar haqida fikr bildirar ekan, tadqiqotchi G.A. Mirsalixova tomonidan bildirilgan quyidagi fikrlar e'tiborga molik, ya'ni: "... har bir jamiyatda tarbiyasida nuqsonga ega, yoki boshqa salbiy xususiyatga ega tashqi ta'sirlar natijasida hayotda o'z o'rnini topishga qiynalayotgan va shu sabab o'zi bilib, bilmay jinoyat olamiga tushib qolayotgan yoshlarning ham borligi hali bu borada soha vakillari oldida amalga oshirilishi lozim bo'lgan yana bir qator vazifalar borligini ko'rsatib bermoqda”[6].

Ular o'zlarining qilgan ishlarini to'g'ri deb baholashi, aynan ko'plab turdag'i mojarolarning, yangi huquqbazarliklarning tug'ilishiga sabab bo'lib kelmoqda. Ular tarbiyaviy ahamiyatga boy filmlar orqali o'zlariga tegishli xulosa chiqaradi deb o'ylaymiz albatta. Keyingi o'rnlarda esa mahalladagi uyushmagan yoshlar hamda ishsizlar sonini kamaytirish ularni ma'lum turdag'i yumushlar bilan band qilish, hamda tadbirkorlikka yo'naltirish va bu borada ularning qiziqishlarini o'rganib yechimlar izlashimiz ko'maklashishimiz kerak. Hamda bu kabi huquqbazarliklarning shart-sharoitlari va nimadan sababdan kelib chiqishlari haqidagi fikrlarini inobatga olgan holda chuqr o'ragib tanishib chiqishimiz va ma'suliyat bilan yondosha olishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi "O'zbekiston respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son farmoni.
<https://lex.uz/docs/-5749291>
2. Ma'muriy huquqbazarliklarga oid statistik ma'lumotlar.
<https://data.egov.uz/uzbKr/spheres/607ff3e67b6428eee08802bf>
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.
<https://lex.uz/docs/-97664>
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/uz/docs/-111453>.
5. Мирсалихова Г. А. Ривожланган хорижий давлатларда вояга етмаганлар томонидан содир этиладиган жиноятчиликка қарши курашишнинг тартибга солиниши //SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. - 2023. - Т. 1. - №. 6. - С. 5-15.
6. Таштемиров А. А. Йулларда харакатланишни тартибга солишнинг хукукий жихатлари ва бу борада технологиянинг ахамияти //SIYOSATSHUNOSLIK, HUQUQ VA XALQARO MUNOSABATLAR JURNALI. - 2022. - Т. 1. - №. 2. - С. 111-115.